

Solihning da'vati



16:00 / 03.04.2021 2476

Solih, qavmi oldida turib, ovozi boricha: **«Ey qavmim, Allohga ibodat qilinglar. Sizlarga Undan o'zga iloh yo'q»**, (*A'rof surasi, 62-oyat*) dedi. Boylar yeb-ichish va befoyda, o'yin-kulguda edi. Butlarga ibodat qilib, ulardan boshqani iloh deb bilmasdilar. Solihning da'vati ularni ajablantirmadi.

Samud qavmi boylari g'azablanib: «Bu kim?» dedi.

Xizmatkorlar: «Bu Solih», deyishdi.

- Nima deyapti?

- Allohga ibodat qilinglar, sizlarga Undan boshqa iloh yo'q, albatta Alloh sizlarni o'lganingizdan keyin qayta tiriltiradi va jazolaydi, men Allohning payg'ambariman, qavmimga meni elchi qilib yubordi, deyapti.

- Boylar kulib: «Bechora! Bu payg'ambar bo'la oladimi? Uning qasri ham bog'i ham, ekinlari ham xurmozori ham yo'q-ku! Bu qanday qilib payg'ambar bo'la oladi?» deyishdi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad